XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-sentabr VII-11-83-8-111-K/25 Denov tumani

Denov tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2025-yil 15-martdagi 39-8-111-F/25-sonli farmoyishiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Surxondaryo viloyati Denov tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tumanning umumiy perimetri 180440.85 metr, tuman umumiy maydoni 82450,77 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

1. Anbarsoy qishlog‘ining umumiy perimetri 35522,10 metr, umumiy maydoni 2999,19 gektar.
2. Binokor qishlog‘ining umumiy perimetri 19637,29 metr, umumiy maydoni 1043,50 gektar.
3. Dahana qishlog‘ining umumiy perimetri 42265,21 metr, umumiy maydoni 3037,76 gektar.
4. Denov qishlog‘ining umumiy perimetri 28603,51 metr, umumiy maydoni 1457,26 gektar.
5. Farg‘ona qishlog‘ining umumiy perimetri 28883,81 metr, umumiy maydoni 1622,48 gektar.
6. Hazorbog‘ qishlog‘ining umumiy perimetri 58469,19 metr, umumiy maydoni 5885,01 gektar.
7. Kenagas qishlog‘ining umumiy perimetri 66982,99 metr, umumiy maydoni 7545,64 gektar.
8. Pistamozor qishlog‘ining umumiy perimetri 45526,00 metr, umumiy maydoni 2537,77 gektar.
9. Qiziljar qishlog‘ining umumiy perimetri 50252,96 metr, umumiy maydoni 3686,77 gektar.
10. Tortuvli qishlog‘ining umumiy perimetri 32936,91 metr, umumiy maydoni 3012,19 gektar.

11. Xayrobod qishlog‘ining umumiy perimetri 59853,43 metr, umumiy maydoni 3589,08 gektar.

12. Xolchayon qishlog‘ining umumiy perimetri 33280,95 metr, umumiy maydoni 1308,20 gektar.

13. Yangiobod qishlog‘ining umumiy perimetri 42197,27 metr, umumiy maydoni 2909,91 gektar.

14. Yangizamon qishlog‘ining umumiy perimetri 21849,13 metr, umumiy maydoni 1775,47 gektar.

15. Sina qishlog‘ining umumiy perimetri 134359,41 metr, umumiy maydoni 32506,44 gektar.

16. Yurchi qishlog‘ining umumiy perimetri 42298,55 metr, umumiy maydoni 3749,57 gektar.

17. Denov shahrining umumiy perimetri 26897,39 metr, umumiy maydoni 1458,31 gektar.

18. Dahana shaharchasining umumiy perimetri 9247,49 metr , umumiy maydoni 136,52 gektar

19. Do‘stlik shaharchasining umumiy perimetri 7527,84 metr, umumiy maydoni 209,27 gektar

20. Jamatak shaharchasining umumiy perimetri 4882,31 metr, umumiy maydoni 105,22 gektar.

21. Nomozgoh shaharchasining umumiy perimetri 7674,46 metr, umumiy maydoni 155,83 gektar.

22. Paxtakurash shaharchasining umumiy perimetri 10860,72 metr, umumiy maydoni 211,34 gektar.

23. Qiziljar shaharchasining umumiy perimetri 9562,17 metr, umumiy maydoni 173,44 gektar.

24. Xitoyan shaharchasining umumiy perimetri 12579,88 metr, umumiy maydoni 332,54 gektar.

25. Xolchayon shaharchasining umumiy perimetri 8057,95 metr, umumiy maydoni 171,91 gektar.

26. Yangi Hazorbog‘ shaharchasining umumiy perimetri 14588,03 metr, umumiy maydoni 330,59 gektar.

27. Yangiobod shaharchasining umumiy perimetri 7697,67 metr, umumiy maydoni 171,74 gektar.

28. Yurchi shaharchasining umumiy perimetri 12344,78 metr, umumiy maydoni 327,84 gektar.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan Respublika agrogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi yer tuzish va kompleks loyihalash bo‘limi boshlig‘i F.Xo‘jamurodovning axborotini tinglab, muhokama qilinib, xalq deputatlar Denov tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish Markazining 2025-yil 5-iyundagi №22-06/2399-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish

hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika agrogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi yer tuzish va kompleks loyihalash bo‘limi boshlig‘i F.Xo‘jamurodovning Denov tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasi tomonidan Surxondaryo viloyati Denov tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Denov tumani komissiyasining 2025-yil 21-apreldagi 01-06/7-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlar Denov tumani Kengashining 2025-yil 13-maydagi “Denov tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida” VII-9-54-8-111-K/25-son qarori bekor qilinsin va o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.


6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABROROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 11-sentabrdagi
VII-11-83-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova


Surxondaryo viloyati Denov tumani mamuriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari
SXEMASI
A
B
D
E
Sina qishlog'i
Yurchi qishlog'i
Tortuvli qishlog'i
Denov qishlog'i
Kenagas qishlog'i
Yurchi shaharchasi
Binokor qishlog'i
Dahana shaharchasi
Qiziljar qishlog'i
Farg'ona qishlog'i
Yangizamon qishlog'i
Dahana qishlog'i
Xolchayon shaharchasi
Qiziljar shaharchasi
Xolchayon qishlog'i
Anbarsoy qishlog'i
Denov shahar
Xitoyan shaharchasi
Jamatak shaharchasi
Pistamozor qishlog'i
Yangiobod shaharchasi
Hazorbog' qishlog'i
Yangi Hazorbog' shaharchasi
Yangiobod qishlog'i
Yangiobod shaharchasi
Do'stlik shaharchasi
Paxtakorash shaharchasi
Xayrobod qishlog'i
Chegaradosh yerlar izohnomasi
A dan B gacha Sariosiyo tumani yerlari
B dan D gacha Uzun tumani yerlari
D dan E gacha Sho'rchi tumani yerlari
E dan A gacha Oltinsoy tumani yerlari
Shartli belgilar
Tumanlar chegarasi
Qishloqlar (Ovullar) chegaralari
Shaharchalar chegaralari